

**XO"JAOBOD TUMAN AXBOROT – KUTUBXONA
MARKAZI**

AXBOROT – BIBLIOGRAFIYA XIZMATI

**“Kitob bor joyda – nur ,bor.” (Kitobxonlarni
mutolaa madaniyatini oshrish maqsadida
varaqa)**



Xo'jaobod 2026

Kitob o'qigan insonning qanoti bor! Kitoblar qalbimizni ilitadi, ko'nglimizni yoritadi, baxtli va saodatli, nurli kunlarga boshlaydi. Inson tafakkurini yuksaltiruvchi asosiy kuch bu — mutolaa.

Kitob umr yo'llarini yorituvchi so'nmas nur, inson hayotiga mazmun baxsh etuvchi saodat manbai, unga har qanday vaziyatda ham hamroh bo'luvchi sodiq do'st. Insonning ma'naviy kamolotini ta'minlashda kitob singari kuchli qudratga ega vosita yo'q.

Ey muhtaram yoshlar! Aziz birodarlar, o'g'ul to'ylarig'a sarf qilaturg'on aqchalarigizni mana shul ilm zamoni yo'lig'a sarf etingiz, sizdan o'g'lingizg'a mol meros qolmasun, balki, albatta, ilm va tarbiya qolsun.



Mahmudxo'ja Behbudiy.

Agar kishi tijorat bilan mashg'ul bo'lsa, bu dunyoda faravon yashaydi, agar ibodat bilan shug'ullansa, u dunyoda oxirati obod bo'ladi, agar ilm bilan shug'ullansa, u ikki dunyo saodatiga erishadi. Abdurauf Fitrat.



Dunyo tarixidagi eng kuchli podshohu boshqa xil davlat arkonlari haqida ma'lumotlarni o'qisangiz barchasida kichik yoshdan kitob o'qish, yozish o'rgatilganligiga guvoh bo'lasiz Shu bois azal-azaldan ma'rifat peshvolari, ahli donishlar butun insoniyatni kitob o'qishga, undan ilmu odob sirlarini o'rganishga chorlab kelishgan. Zero buyuk bobokalonimiz, so'z mulkining sultoni Alisher Navoiy hazratlari ta'kidlaganlaridek kitob – beminnat ustoz, bilim va ma'naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbaidir.



So'nggi yillarda davlatimiz rahbari tomonidan kitob mutolaasi muhimligi, yoshlar, rahbarlar orasida bu fazilatni targ'ib qilish haqida ko'p bora ta'kidlanmoqda. Amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy izchil islohotlar jarayonida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlatimiz rahbari kitobsiz, ya'ni ilmsiz farovon kelajakka erishib bo'lmasligiga o'z vaqtida e'tibor qaratdi.



Xususan, 2017 yil 12 yanvarda Prezidentimizning “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida”gi farmoyishi imzolangandi. O'tgan vaqt ichida bu yo'nalishda juda katta ishlar amalga oshirildi.

O'znavbatida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 sentyabrda qabul qilingan “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida”gi hamda 2019 yil 7 iyunda qabul qilingan “O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida”gi qarorlari ayni sohadagi islohotlarning izchilligiga keng yo'l ochdi.



Kitob o'qishda hikmat ko'p. Keng dunyo qarash va bilimga ega bo'lishda kitobning ahamiyatini hech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydi. Kitob insonni intizomli qiladi. Nafsni yengishga va kattani hurmat, kichikni izzat qilishga o'rgatadi. Kitob o'qigan kishi qonunlarga itoat qilish kerakligini anglaydi.



Aslida ham, kitob va kitobxonlik insonlar ong-tafakkurini teranlashtirib, qalbiga eng go‘zal ezgu niyatlarni joylaydigan, ularni yaxshiliklar olamiga yetaklaydigan ma‘naviyat sarchashmasidir. Shuning uchun har doim kitob o‘qishga ehtiyojimiz bor.

Mamlakatimizi jtimoiy-siyosiy, madaniy ma'rifiy hayotida yuz berayotgan o'zgarishlarni kuzatib borish bilan bir qatorda, oila a'zolari bilan muloqot qilish, farzandlar tarbiyasi bilan shug'ullanish, nabiralarga ertak kitoblar o'qib berish, jahon va o'zbek adabiyotining sara asarlarini mutolaa qilish ham ijtimoiy faollikka kiradi.




Kitob mutolaasi esa kishida shunday chin insoniy fazilatlarni shakllantirib, uni hayotda o‘z o‘rnini topishga, jamiyatning chinakam a‘zosiga aylanishida, dunyoqarashini kengaytirishda beqiyos ahamiyatga ega.

Kitoblar qalbimizni ilitadi, ko‘nglimizni yoritadi, baxtli va saodatli, nurli kunlarga boshlaydi. Dunyoni faqatgina ilm bilan zabt etish mumkin ekanligi haqidagi asl haqiqat bugun hech kimga sir emas. Ilmni mustahkam egallashning yo‘li esa bitta, ya‘ni – kitob o‘qish.

Mamlakatimizda yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish, aholining kitobxonlik ko'nikmasini yuksaltirish, milliy adabiyotimiz va jahon adabiyotining eng yaxshi namunalarini internet tarmoqlariga joylashtirish va keng targ'ib qilishishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, kelajak avlod uchun, bolalar adabiyotini rivojlantirish, o'quv adabiyotlari va darsliklarning saviyasini ko'tarish uchun zarur bo'lgan barcha ma'naviy, huquqiy va moddiy asoslar yaratildi.

Yangi O'zbekiston bolalariga atalgan kitoblar hayot maydonining eng yuksak cho'qqisiga chorlab turadigan porloq mash'alaga o'xshaydi. Ularning har bir sahifasi farzandlarimizni izlanishga, intilishga, yangiliklar yaratishga chorlab va hamisha ilhomlantirib turadi



Dar haqiqat kitob o'qimagan insonning ma'naviyati bo'lmaydi. Dunyoqarashi past bo'ladi, olam sirlarini bilmoq istasak ko'p kitob o'qimoq kerak. Xalqimiz tilida ham kitob o'qib bilim va munosib ta'lim-tarbiya olish, ilm-fan bilan shug'ullanish, kasb-hunar o'rganishning ahamiyatiga doir maqollar juda ko'p. Jumladan, "Kitobsiz

aql – qanotsiz qush”, “Go`zallik – ilmu ma`rifat bilan”, “Ilm baxt keltirar, bilim taxt keltirar”, “Hunar – oqar buloq, ilm – yonar chiroq”, “Baxt belgisi – bilim”, “Bilim – aql chirog`i”, “Beshikdan qabrgacha bilim izla”, “Oltin olma, bilim ol, bilim olsang, bilib ol”. Bu kabi pur ma`no va ser hikmat naqlar kitob sevuchi xalqimiz lug`atida ko`plab topiladi.



Eng asosiysi, necha asrlardan buyon sayqallanib, qanchadan-qancha avlodlarga yo`lchi yulduzdek to`g`ri yo`lni ko`rsatib kelayotgan anashu xalqona hikmatlar negizidagi asl haqiqat shuki, insonning bilimli, tarbiyali, kasb-hunarli va albatta baxtli hamda davlatli bo`lishining muhim omili – bu kitobga oshno bo`lish, hamisha kitob o`qish va uning mutolaasini umr bo`yi kanda qilmaslikdir. Ayniqsa, yoshlarning baxtu kamoli, osoyishta va farovon hayotida kitobning alohida o`rni bor. Chunki yaxshi kitob insonda Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg`ularini yuksaltirib, yaxshilik hamda ezgulikka undaydi.

Kitob insonni komillikka etaklaydi. Hayot qoidalari yashash san`atini o`rgatadi. Kitob bilim beradi, ilm esa ziyo, nur, ma`naviy quvvat demakdir.

Kitob insoniyat ongli hayoti va ma`naviyat olamining bosh timsollaridan sanaladi. U–bepoyon olam: bag`rikeng, osmoni balanddir. Kitob bilim manbai, insoniyat to`plagan hikmatlar xazinasini, ijtimoiy ong mahsulidir.

Кутубхонамиздан нималарни топишингиз мумкин?

Жаҳон адабиёти дурдоналари (Ўлмас классик асарлар).

Замонавий ўзбек насри (Энг сўнги нашр этилган китоблар).

Болалар учун эртақлар (Рангли ва қизиқарли расмли китоблар).

Фойдали маълумотномалар (Энциклопедия ва луғатлар).

Tuzuvchi: M. Obidova